

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi
“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Tuproqdagi tuzni kristallashtirib, ko‘chmas qatlamga aylantirish orqali chang ko‘tarilishini kamaytirish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - qum zarrachalarini bog‘lab minerallar ta‘sirida qattiq qatlam hosil qilish va shamol eroziyasini oldini olish maqsadida o‘simliklar uchun zararli bo‘lgan tuzlarni bloklash, kimyoviy xususiyatlari va mexanizmini ishlab chiqish; - tuproqni qattiqlashtirish, chang ko‘tarilishini kamaytirish, zarralarni bir-biriga biriktirish orqali, shamol eroziyasini oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish; - yaratiladigan texnologiya asosida yuza qatlamida barqaror, qisman kristallangan va mexanik mustahkam “qobiq” hosil qilish; - Orolbo‘yi hududlarida tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni turli minerallar yordamida kristallashtirib, ko‘chmas qatlamga aylantirish orqali tuproq yuzasidan chang ko‘tarilishini kamaytirish texnologiyasi ishlab chiqish. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi yoki Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.